

YOZUVCHI ODIL YOQUBOVNING “ULUG’BEK XAZINASI” ROMANIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari Institutining Ingliz tili 2 fakulteti

Maktabgacha va Boshlang’ich ta’limda ingliz tili yo’nalishi

2203 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7511373>

Annotatsiya.

Hozirgi zamon tilshunosligida til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini kongnitive nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarflik kasb etmoqda. O’zbek milliy adabiyotidagi frazeologik birikmalarni tadqiq etish orqali o’zbek milliy -madaniy dunyoqarashini erkinroq aks etirish mumkin. Mazkur ilmiy tadqiqotda Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinasi” romanidan olingan bir qancha iboralar va ularning tuuzilishi va turlari haqida ma’lumotlar va misollar berildi

Tayanch so’zlar: frazeologik ma’no, frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik paronimiya, ibora , iboralarning mazmun va ifoda plani.

Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo’lsa-da, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi bir necha yuz yilni o’z ichiga oladi. Rus tilshunosligida Frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug’ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug’ati rejasini tuzar ekan, bunda so’zlar bilan bir qatorda “xalq (Rossiya) maqollari”, “frazeslar” va “idiomatizmlar” o’z ifodasini topishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiya chet el tilshunosligida bo’lganidek, o’zbek tilshunosligida ham tez sur’atlar bilan o’sdi.

O’zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o’tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o’rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo’ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo’yicha bir necha lug’atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan.

Frazeologik ma’no - tilda ham shakl ham ma’no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi tovush ko’zda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb ataladi. Tovush yozuvda harf bilan ko’rsatiladi. Shu asosda tovush va yozuv shakli farq qiladi.

Biror predmentni, harakat-holatni yoki shularga aloqador belgi-xususiyatlarni nomlovchi bunday ma’noga leksik ma’no deyiladi. Leksik ma’noni ifodalaydigan

birlikka leksema deyiladi. Gramatik ma'noni ifodalaydigan qismga esa morfema deyiladi.

Iboralar ham ifoda va mazmun planiga ega. Sodda morfemalarda uning ifoda plani deb uning tovush tizimiga aytilsa yasama leksemada uning tarkibidagi leksema va morfema nazarda tutiladi Masalan:(chilik . chi- lik) kabi.

Ibora yirik til birligi bo'lib kammida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar (leksemalar) shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Tarkibli morfemalarning, leksemalarning ma'nosi odatda uni tashkil etuvchi til birliklariga xos ma'nolarining yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butun ma'nosi tushuniladi. [Shavkat Rahmatullayev]"o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" o'qituvchi nashriyoti Tosh-1917 kirish -5 betlar].

Ibora - ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'z birikmasi yoki gapga ibora deyiladi. Masalan: Dimog'i chog' (xursand), yuzini yerga qaratmoq (uyaltirmoq), qo'li baland kelmoq (g'olib bo'lmoq), va hokazo. Iboralar nutqni jozibali va shirali qiladi.[5 -sinf ona tili G'afur G'ulom nashriyot uyi Tosh-2020 145-146 betlar].

Iboralarda ham omonimlik, sinonimlik, paronimlik, antonimlik xususiyatlari mavjud.

Omonim-tilimizda tovush yozuvda harflar tomoni bir xil bo'lib turli atash ma'nolarini birdiruvchi birliklar omonimlar deyiladi. "Omonim-loticha so'z bo'lib bir nom degan ma'noni anglatadi.Omonimlar so'z, qo'shimcha va ibora shaklida mavjud bo'ladi.Masalan:Umida onasini boshiga ko'taradi (e'zozlaydi).

Umida sinfni boshiga ko'taradi (to'polon qiladi) .[5 -sinf ona tili G'afur G'ulom nashriyot uyi Tosh-2020 115-116 betlar].

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq birliklar sinonimlar deyiladi. Sinonimlar ham xuddi omonimlarga o'xshab so'z, ibora va qo'shimcha shaklida bo'ladi.

Masalan: Kapalagi uchib ketdi-yuragi yorila yozdi qabilida.[5-sinf ona tili G'afur G'ulom nashriyot uyi Tosh -2020:112-113 betlar].

O'zaro zid ma'noli so'zlar antonim so'zlar deyiladi. Ular zid ma'noli so'zlar deb ham yuritiladi. Antonimlar: leksik antonimlar, qo'shimcha antonimlar va frazeologik antonimlarga bo'linadi. Masalan:Kapalgi uchib ketdi-Pinagini buzmedi shaklida. [5-sinf ona tili G'afur G'ulom nashriyot uyi Tosh-2020 117-118 betlar].

Frazeologik paronimiya -iboralar orasida shaklan tenglanishda tashqari ,shalkliy yaqinlik hodisasi ham bor. Shu asosda frazeologik paronimlar ,frazeologik paraformlar haqida gapirish mumkin. Bazi iboralar o'zaro leksik tarkibidagi bir

so'z-konponenti bilangina bilan farq qiladi ,shu faqr tufayli so'z-konponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqillikka ega iboraga frazeologik paronomiya deyiladi.

Masalan: Yetti uxlab tushiga kirmaslik-Yetti uxlab tushida ko'rmaslik kabi. [Shavkat Rahmatullayev."O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" O'qituvchi nashriyot uyi Tosh-2017 :8]

Mazkur ilmiy tatqiqotda Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini "romanidan olingan bir qancha iboralar va ularning tuzulishi va turlari haqida ma'lumotlar va misollar berildi.

1.Ko'ngli notinch davlatpanoh esa bunga alaqanday umid bo'lar,nimanidir kutar edi ushbu gapdagi "Ko'ngli notinch" iboraning ma'nosi: ta'bi xira ,biror narsadan-tashvishli,bezovta, notinch. Antonimi:ko'ngli to'q.[Yoqubov 2019:5].

2.Ikki kungacha ustozning mahzun nigohi ko'z oldidan ketmay iztirob chekdi ,bir necha bor Ko'ksaroyga borishga chog'landi, lekin jur'at eta olmadi.[Yoqubov, 2019:5]. Ushbu konteksdagi "ko'z oldidan ketmay" iborasining ma'nosi bo'lgan voqea -hodisalarni unuta olmaslik ma'nosini izohlaydi.

3. Nechun hamma davru-davron ,hamma davlat va hamma shoh va fotihlarning tarixini besh qo'lday biladigan bu zukko donishmand toj va taxt hech kimga vafo qilamasligini bilmadi bilsada ,uni tark etishga irodasi yetmadi? [Yoqubov ,2019:11]. Gapdagi "besh qolday bilmoq" iborasi ma'lum bir narsalarni mukammal bilmoq , aqli shu narsalarga yetadi degan ma'noni anglatadi.

4. Ustod,ko'zlari yarim yumuq, boshini egib, xayolga tolib o'tirar edi. [Yoqubov,2019:13]. Ushbu gapdagi "xayolga tolmoq" iborasi xayoli band nimadir haqida chuquroq o'ylash ma'nosida kelgan. Variantlari: o'yga to'lmoq.

5. Mirzo Ulug'bek labini tishlab yana jim qoldi. [Yoqubov,2019:15]. kontekesdagi "labini tishlamoq" iborasining ma'nosi -kutilmagan xodisaga duch kelib nima deyishini bimay qolmoq. O'xshashi: tilini tishlamoq.

6. Chol ham xuddi Mirzo Ulug'bekka o'xshab peshonasidan o'pgani,yuziga tekkan oppoq mayin soqoli yodiga tushib ko'ngli erib ketdi. [Yoqubov,2019:25]. Gapdagi "ko'ngli erib ketdi" iborasi:ko'ngli bo'shab ketmoq, qattiq ta'sirlanmoq, to'lqinlanmoq kabi ma'nolarini ifodalaydi.

7.Boshda uni bu yurishga davat etgan amirlar esa zafariyatsiz urushdan keyin undan yuz o'girib ,zimdan choq qazimoqdalar.[Yoqubov,2019:29]. Matndagi "yuz o'girmoq" iborasi voz kechmoq ,aloqalrini uzmoq ma'nosini beradi.

8.Odatda bu mahallada katta charm meshlarni bo'yinlariga osib olgan meshkobchilar ko'chaga suv sepib , farroshlar yog' tushsa yalgudek qilib supurib -sindirib qo'yishardi. [Yoqubov,2019:43]. Kontekesdagi "yog' tushsa yalagudey" iborasi – nihoyat darajada top-toza ma'nosini bildiradi.

9.Hozir esa do'konlar berk hamma yoq suv quygandek jimjit. [Yoqubov 2019:44]. Gapdagi "suv quygandek jimjit" iborasi- tinch, jimjit,churq etgan ovoz yoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Varianti- Pashsha uchsa ovozi ishtilar darajada.

10.Kunlardan bir kuni dong'i olamga ketgan hind podshosi o'zining eng yaqin mahramlari bilan ovga chiqqanemish.[Yoqubov 2019:55]. Ushbu konteksdagi "dong'i olamga ketgan" iborasi-ovozasi ketgan, mashxur, balandparvoz dongdor odam. Varianti ovozasi ketgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki,frazeologik birliklar,iboralar o'zbek tilining azaliy boyligi hisoblandi.O'zbek tili iboralarga boy tildir. Frzazeologik birliklarni qancha ko'p o'rganib,ularning ma'nolarini tushunsak nutqiy madaniyatimiz shuncha ko'p go'zallashadi. Natijada nutqimiz shirali, mazmunli va aniq, barcha uchun tushunarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev. ["O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". O'qituvchi nashriyot uyi Tosh-2017.(Kirish 5-...8 betlar].
2. 5-sinf ona tili darsligi.[G'afur G'ulom nashriyot uyi Tosh-2020 111-166.112-113,145-146 betlar]
3. Yoqubov O. "Ulug'bek xazinasasi". [Toshkent. 2019.-5 ... 60 betlar]
4. uz.m.wiktionary.org.